

O‘ZBEKISTONDA PEDAGOGLARNING KASBIY CHARCHASHI VA RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASI ASOSIDA TAHLIL.

*Kattaqórg'on Davlat Pedagogika Instituti
Pedagogika yónalishi 3 kurs talabasi
Orziqulova Farzona*

Annotatsiya.

Ushbu maqolada O‘zbekistonda pedagoglarning kasbiy charchashi muammosi ilmiy-nazariy va qiyosiy tahlil asosida yoritilgan. Tadqiqot jarayonida kasbiy charchash tushunchasining mazmun-mohiyati, uning pedagogik faoliyatdagi namoyon bo‘lish shakllari hamda pedagog shaxsiga ta’sir etuvchi omillar tahlil qilindi. Shuningdek, rivojlangan mamlakatlarda pedagoglarning kasbiy charchashining oldini olishga qaratilgan samarali tajribalar o‘rganilib, ularni O‘zbekiston ta’lim tizimi sharoitida qo‘llash imkoniyatlari asoslab beriladi.

KALIT SO‘ZLAR: Kasbiy charchash, burnout, pedagogik faoliyat, pedagog shaxsi, psixologik farovonlik, ta’lim sifati, qiyosiy pedagogika, rivojlangan mamlakatlar tajribasi.

Аннотация

В данной статье на основе научно-теоретического и сравнительного анализа рассматривается проблема профессионального выгорания педагогов в Узбекистане. В ходе исследования проанализированы сущность понятия профессионального выгорания, формы его проявления в педагогической деятельности, а также факторы, влияющие на личность педагога. Кроме того, изучен эффективный опыт развитых стран по профилактике профессионального выгорания педагогов и обоснованы возможности его применения в условиях системы образования Узбекистана.

Ключевые слова: Профессиональное выгорание, burnout, педагогическая деятельность, личность педагога, психологическое благополучие, качество образования, сравнительная педагогика.

Abstract

This article examines the problem of professional burnout among teachers in Uzbekistan based on scientific-theoretical and comparative analysis. The study analyzes the essence of the concept of professional burnout, its manifestations in pedagogical activity, and the factors affecting the teacher’s personality. In addition, effective practices of developed countries aimed at preventing teacher burnout are explored, and the possibilities of their implementation in the context of the education system of Uzbekistan are substantiated.

Keywords: Professional burnout, teacher burnout, pedagogical activity, teacher personality, psychological well-being, quality of education, comparative pedagogy.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglardan yuqori kasbiy salohiyat, psixologik barqarorlik va doimiy yangilanish talab etilmoqda. Pedagogik faoliyatning murakkab va ko'p qirrali xususiyati esa pedagoglarda kasbiy charchash (burnout) holatlarining yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Ushbu holat pedagoglarning emotsional holati, kasbiy motivatsiyasi va ta'lim sifati pasayishiga olib keluvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlarda pedagoglarning kasbiy charchashining oldini olishga qaratilgan tizimli mexanizmlar ishlab chiqilgan bo'lib, ularning tajribasini o'rganish va O'zbekiston ta'lim tizimi sharoitida moslashtirish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolaning maqsadi O'zbekistonda pedagoglarning kasbiy charchashi muammosini ilmiy-nazariy va qiyosiy tahlil qilish hamda samarali tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Kasbiy charchash muammosining nazariy asoslari

O'qituvchining kasbiy salomatligi muammosi hozirda bir qator tadqiqotchilarning e'tiborini tortmoqda. O'qituvchining kasbiy salomatligi muammosiga murojaat qilgan birinchi tadqiqotchilardan biri bu kasbiy salomatlikni o'rgangan L. M. Mitina o'qituvchilar salomatligi va ish samaradorlikni ta'minlaydigan kompensatsion, himoya, ularni tartibga solish mexanizmlarini saqlash va faollashtirishga doir tadqiqotlarni olib borgan. [1] O'qituvchini kasbiy charchashi "burnout" deb nomlanadi. Kuyish atamasi 1970-yillarda taniqli psixolog Gerbert Freydenberger tomonidan kiritilgan. U charchashni o'tkir jismoniy, ruhiy va ruhiy charchashga olib keladigan jiddiy va stressli holat deb ta'riflagan. Ushbu holatning salbiy ta'siri hayotingizning barcha sohalarida - uyingizda, ish joyingizda va hatto ijtimoiy doirangizda bezovtalikni keltirib chiqarishi mumkin. [2]. pedagog shaxsining kasbiy faoliyati jarayonida yuzaga keladigan murakkab psixologik holat sifatida talqin etiladi. Tadqiqotchilarning fikricha, pedagoglarda kasbiy charchashning shakllanishi mehnat faoliyatining mazmuni, tashkiliy sharoitlar hamda shaxsiy-psixologik omillar sabab bo'ladi bular quyidagilar: 1. pedagogik faoliyatdagi ortiqcha ish yuklamasi kasbiy charchashning asosiy omillaridan biri sifatida ko'rsatiladi. O'quv mashg'ulotlaridan tashqari hujjatlarni rasmiylashtirish, hisobotlar tayyorlash, sinfdan tashqari tadbirlar pedagogning jismoniy va emotsional zo'rliqlashiga olib keladi. Bu holat uzoq muddat davom etganda emotsional charchashni yuzaga keltiradi. 2. Shuningdek, doimiy psixo-emotsional bosim va stress pedagoglarda kasbiy charchashning kuchayishiga sabab bo'ladi. Ta'lim jarayonida o'quvchilar, ota-onalar va ma'muriyat bilan muntazam muloqotda bo'lish yuqori darajadagi mas'uliyatni talab etadi. Natijada pedagogda befarqlik, sovuqqonlik va kasbiy qoniqmaslik holatlari

shakllanishi mumkin.3.O'zbek olimlari tomonidan ta'kidlanishicha, pedagog mehnatining ijtimoiy va moddiy jihatdan yetarli darajada rag'batlantirilmasligi ham kasbiy charchash omillaridan biri hisoblanadi. Pedagog faoliyatining jamiyat tomonidan yetarli e'tirof etilmasligi kasbiy motivatsiyaning pasayishiga olib keladi hamda shaxsiy yutuqlardan qoniqmaslik holatini kuchaytiradi.4-sabab ta'lim muassasalarida psixologik qo'llab-quvvatlash tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi pedagoglarda stressni boshqarish ko'nikmalarining shakllanmasligiga sabab bo'ladi. Natijada kasbiy charchashning oldini olish imkoniyatlari cheklanadi. Pedagoglarda kasbiy charchash dars jarayoniga bo'lgan motivatsiyaning pasayishi, o'quvchilar bilan samarali muloqotning susayishi hamda zamonaviy pedagogik usullardan foydalanish faolligining kamayishiga olib keladi. Shuningdek o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish darajasi pasayib, ta'lim sifati salbiy ta'sir ostida qoladi. Shuning uchun kasbiy charchashning oldini olish ta'lim sifati oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Xorijiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda pedagoglar orasida kasbiy charchash holatlari mavjud bo'lsa-da, ularni oldini olish bo'yicha tizimli mexanizmlar samara berayotgani xam yorqin misol bo'la oladi. Birinchidan, pedagoglar uchun psixologik yordam va maslahat xizmatlari yo'lga qo'yilgan. Maktablarda doimiy faoliyat yurituvchi psixologlar tomonidan stressni boshqarish, emotsional zo'riqishni kamaytirish bo'yicha treninglar tashkil etiladi. Ikkinchidan, ish yuklamasini optimallashtirishga alohida e'tibor qaratiladi. Dars soatlari va hujjat yuritish hajmi me'yorlashtirilib, pedagoglarning ish va dam olish muvozanati ta'minlanadi. Uchinchidan, pedagoglarning kasbiy rivojlanishi va qo'llab-quvvatlanishi tizimli ravishda amalga oshiriladi. Malaka oshirish kurslari, mentorlik dasturlari hamda kasbiy o'sishni rag'batlantiruvchi mexanizmlar burnoutning oldini olishga xizmat qiladi. To'rtinchidan, pedagog mehnatining ijtimoiy va moddiy rag'batlantirilishi muhim omil sifatida qaraladi. Rivojlangan mamlakatlarda o'qituvchilik kasbining ijtimoiy nufuzi yuqori bo'lib, bu ularning kasbiy qoniqishini oshiradi. Umuman olganda, rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, pedagoglarda kasbiy charchashning oldini olish faqat individual emas, balki tizimli va institutsional yondashuvni talab etadi. Quyidagi jadvalda dunyodagi rivojlangan mamlakatlarda pedagog kadrlarni burnout holati keltirilgan yani ularni foiz va sabalarini yoritib otaman.

Davlatlar	Burnout %	Sabablar
AQSh	30–35 %	ish yuklamasining yuqoriligi, hujjatbozlik, o'quvchilar natijalari bo'yicha kuchli bosim.

Kanada	20-30%	emotsional zo‘riqish, inklyuziv ta’lim sharoitida ishlash murakkabligi, mas’uliyatning ortishi.
Yaponiya	40%	haddan tashqari mehnat madaniyati, uzoq ish vaqti, dam olishning yetarli emasligi.
Xitoy	35-40%	sinflarda o‘quvchilar sonining ko‘pligi, yuqori raqobat, ota-onalar talabining kuchliligi.
Finlyandiya	15-20%	pedagogga qo‘yilgan yuqori mas’uliyat, individual yondashuv, emotsional javobgarlik.
Singapur	20-25%	natijadorlikka yo‘naltirilgan ta’lim tizimi, yuqori baholash talablari.
Rossiya	45-50%	past ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ish haqi bilan qoniqmaslik, psixologik yordam yetishmasligi.
Angliya	25-30%	hisobotlar va hujjatlarning ko‘pligi, vaqt bosimi, baholash tizimidagi stress.
Fransiya	30%	kasbiy stress, ta’lim tizimidagi doimiy islohotlar, ish barqarorligiga nisbatan noaniqlik.
Germaniya	20-25%	yuqori mas’uliyat, ish intensivligi, darsdan tashqari yuklama.

Tavsiyalar.

1. Ish yukini optimallashtirish: Pedagoglarning dars va darsdan tashqari faoliyati muvozanatli tarzda rejalashtirilishi lozim
2. Psixologik qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish: Ta’lim muassasalarida stressni boshqarish, emotsional barqarorlikni saqlashga qaratilgan trening va maslahat xizmatlarini joriy etish.
3. Kasbiy motivatsiyani oshirish: Pedagoglarning ijtimoiy maqomi va moddiy rag‘batlantirilishini kuchaytirish, ularning mehnatini jamiyat tomonidan e’tirof etish.
4. Kasbiy mustaqillikni rivojlantirish: Pedagoglarga o‘quv jarayonini boshqarish va metodik yangiliklarni tatbiq etish imkoniyatlarini kengaytirish.

5. Xorijiy tajribalarni moslashtirish: Finlyandiya, Yaponiya va Germaniyada qo'llanayotgan tizimli yondashuvlar va mexanizmlarni milliy sharoitga moslab joriy etish.

Xulosa

Ushbu maqolada O'zbekistonda pedagoglarning kasbiy charchashi yani burnout muammosi ilmiy-nazariy va qiyosiy tahlil asosida o'rganildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekistonda pedagoglarning burnout darajasi rivojlangan mamlakatlarga nisbatan yuqori bo'lib, bunda asosiy sabablar sifatida ortiqcha ish yuklamasi, hujjatbozlik, psixologik qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi va pedagoglarning ijtimoiy hamda moddiy rag'batlantirilmasligi ko'rsatildi. Xorijiy tajribalar esa burnoutni kamaytirish bo'yicha tizimli mexanizmlarning samaradorligini isbotlab beradi, bu esa O'zbekiston ta'lim tizimi uchun qimmatli o'rnak bo'lishi mumkin.

Foдалanilgan adabiyotlar róyxati.

1. <https://econfsseries.com/index.php/1/article/view/385>
2. Karimova G. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
3. Xudoyqulov X. Ta'lim jarayonida pedagog shaxsining psixologik xususiyatlari. – Toshkent, 2019.
4. Raxmonov S. Pedagoglarda kasbiy stress va uning oqibatlari. // Xalq ta'limi, 2021, №4.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Pedagog kadrlar faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid me'yoriy hujjatlar. – Toshkent, 2020.
6. Mirzayeva D. Pedagoglarning kasbiy charchash holatini oldini olish masalalari. // Pedagogik ta'lim, 2022, №2.
7. Водопьянова Н. Е. Синдром профессионального выгорания. – Санкт-Петербург: Питер, 2017.
8. Бойко В. В. Энергия эмоций в общении: взгляд на профессиональное выгорание. – Москва, 2016.
9. Маслач К., Джексон С. Профессиональное выгорание: причины и последствия. – Москва: Прогресс, 2015.
10. Schaufeli W.B., Enzmann D. The burnout companion to study and practice. – London: Taylor & Francis, 2015.